

**METHODOLOGY OF CHOOSING ACTIVE GAMES ACCORDING TO CHILDREN'S AGE*****Mirshod Sh. Tursunov*****Student****Bukhara State University****Bukhara, Uzbekistan**

---

**ABOUT ARTICLE**

---

**Key words:** Game, educator, children, movement, analysis, training, selection, age, selection.

**Received:** 25.04.22**Accepted:** 27.04.22**Published:** 29.04.22

**Abstract:** The determination of movement games according to the age of the child is made taking into account his mental abilities and abilities. 3-4 year olds have the ability to imitate the movements of different objects and animals and to distinguish different colors. For children aged 5-6, a slightly more complex form of movement games is recommended: climbing on cubes, throwing the ball away, jumping. 7-10 year olds, on the other hand, are much older and have developed relatively good skills in games, so at this age, movement games are the foundation of school physical education. In such competitions, the teacher plays the leading role. The increasing number and complexity of such movement games in the physical and mental development of growing children has a positive effect on their brain and body.

---

## **HARAKATLI O'YINLARNI BOLALAR YOSHIGA MOS HOLDA TANLASH METODIKASI**

*Mirshod Sh. Tursunov*

*Talaba*

*Buxoro davlat universiteti*

*Buxoro, O'zbekiston*

---

### **MAQOLA HAQIDA**

---

**Kalit so'zlar:** O'yin, tarbiyachi, bolalar, harakat, tahlil, mashg'ulot, tanlash, yosh, tanlash.

**Annotatsiya:** Harakatli o'ylarning bolaning yoshiga qarab belgilanishi uning aqliy imkoniyatlarini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. 3-4 yoshli bolalarda turli buyum va hayvonlarning harakatlariga taqlid qilish va turli ranglarni ajrata bilish qobiliyati mavjud. 5-6 yoshdagagi bolalar uchun esa harakatli o'ylarning biroz murakkablashgan ko'rinishi: kubiklar ustiga chiqish, to'pni uzoqqa uloqtirish, sakrash kabi o'ylinlar tavsiya etiladi. 7-10 yoshli bolalar esa ancha ulg'ayib, ularda o'ylindarda nisbatan yetarli ko'nikma paydo bo'lganligi sababli bu yoshda harakatli o'ylinlar maktab jismoniy tarbiya fanining asosi hisoblanadi. Bunday xil musobaqali o'ylindarda boshlovchi vazifasini o'qituvchi bajaradi. Yetishib kelayotgan bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishida shu kabi harakatli o'ylarning tobora ko'payib va murakkablashib borishi ularning miyasiga va organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

---

## МЕТОДИКА ПОДБОРА АКТИВНЫХ ИГР В СООТВЕТСТВИИ С ВОЗРАСТОМ ДЕТЕЙ

**Миршод Ш. Турсунов**

*Студент*

*Бухарский государственный университет*

*Бухара, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Игра, воспитатель, дети, движение, анализ, обучение, отбор, возраст, отбор.

**Аннотация:**

Определение двигательных игр по возрасту ребенка производится с учетом его умственных способностей и способностей. Дети 3-4 лет обладают способностью имитировать движения разных предметов и животных, различать разные цвета. Для детей 5-6 лет рекомендуется несколько более сложная форма подвижных игр: лазание по кубикам, отбрасывание мяча, прыжки. Дети 7-10 лет, напротив, значительно старше и у них развиты относительно хорошие игровые навыки, поэтому в этом возрасте подвижные игры составляют основу школьного физического воспитания. В таких конкурсах ведущую роль играет учитель. Увеличение количества и сложности таких подвижных игр в физическом и умственном развитии подрастающих детей оказывает положительное влияние на их мозг и тело.

### KIRISH

Harakatli o‘yinlarni bolani yoshiga mos holda tanlash, tahlil qilish va o‘tkazishning quyidagi turlari mayjud:

1. Kichik yoshdagи bolalarga mos harakatli o‘yinlarni tanlash.
2. O‘rta va katta yoshdagи bolalarga mos harakatli o‘yinlarni tanlash.
3. O‘quvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda harakatli o‘yinlarni o‘tkazish va tahlil qilish.
4. Har xil sinf o‘quvchilari bilan o‘tkaziladigan o‘yinlarning o‘ziga xos metodikasi.

### ASOSIY QISM

O‘quv mashg’ulotining maqsadi: Kichik, o‘rta va katta yoshdagи bolalarga mos harakatli o‘yinlarni tanlash, o‘quvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda harakatli o‘yinlarni o‘tkazish va tahlil qilish, har xil sinf o‘quvchilari bilan o‘tkaziladigan o‘yinlarning o‘ziga xos metodikasi haqida ma‘lumotlarga ega qilish, 3 yashar bolalarning bilim doirasi tor bo‘ladi, dikkati doyimo chalg’ib turadi. Shuning uchun bolalarga oddiy va ular oson tushinadigan o‘yinlarni o‘rgatish

kerak. Bunday o‘yinlarda qush va xayvonlar yoki ularning rasmlari, o‘yinchoqlar, ertaklardan foydalanilsa yaxshi bo‘ladi. Bu o‘yinlar albatta mazmunli va ibratli bo‘lishi shart.

Shu yoshdagi bolalarni o‘yinlarga o‘rgatishda mashqlar katta axamiyatga ega bo‘ladi. Bunday o‘yinlarda mazmun bo‘lmaydi, ularga oddiy topshiriqlar masalan: bayroqni olib kelish, qo‘ng‘iroqchani jiringlatish, koptokka etib olish kabi topshiriqlar beriladi. Harakatlar esa (yurish.yugurish va boshqalar) bolalarga tanish xamda qiynalmasdan bajaradigan bo‘lishi lozim. Mazmuni bolalarga tanish bo‘lgan va harakatlarga singdirib yuborilgan o‘yinlarni kichkintoylar juda qiziqib o‘ynaydilar. Bu esa kichkintoylarning harakat qobiliyatini rivojlantirish ularni ochiq joyda to‘g‘ri yurishga o‘rgatishda katta axamiyatga ega bo‘ladi, faoliy va mustaqillikni tarbiyalashga yordam beradi.

4 yashar bolalar bilim doirasining kengayishi va harakatida tajribalar ortishi bilan harakatli o‘yinlarning mazmuni ham xilma-xil bo‘la boradi. Qush va xayvonlar harakatiga, transport turlariga turli narsalarga taqdid qilib, bajarilgan harakatlar o‘yinlarning asosiy mazmunini tashkil etadi. O‘yinlarda bolalarga buyumlarni tanish shaklini (kub, doira, kvadrat shaklini) eslab qolish bilan bog‘liq bo‘lgan topshiriqlar ranglarni ajratish tovushlarni farq qilish kabi topshiriqlar bera boshlash kerak.

Ko‘pchilik harakatli o‘yinlar mazmunini kengaytirish va shartli vazifalar qo‘yish lozim. Bu yoshda harakatlarni rivojlantirish uchun qo‘yiladigan o‘yin shartlari bilan bolalarning idrok etishida fikr bo‘ladi. Asta-sekin bolalarning vazifani bajarishga munosabati o‘zgaradi Masalan 3 yoshga qadam qo‘ygan bolalar o‘yinda ko‘pincha ma’suliyat sezmagani bo‘lsalar masalan, bo‘ri bitta quyonni tutadi, uni tutib olganidan keyin u bilan birga yugurib, o‘ynab ketadi, boshqa quyonlarga esa e’tibor bermaydi, endi bolalar o‘zlariga yuklatilgan vazifani tushunadigan bo‘ladilar

O‘yindagi harakatlarning mazmuni tushunarli va qiziqarli bo‘lishi juda muxim. Bu ularning faoliyatini oshiradi, harakatlarga xis-xayajon va jo‘shqinlik bag‘ishlaydi. To‘rt yoshga qadam qo‘ygan bolalar bilan o‘tkaziladigan o‘yinlarda harakatlarni ancha murakkablashtirish (kubiklar ustiga chiqish, ustida cho‘nqayib o‘tirish, undan tushish, stul tagiga emaklab kirish va xokazo) xamda har xil harakatlarni bir-biriga qo‘sib qilish kerak bo‘ladi (koptokni tutish uchun irgishlab sakrash va xokazolar). Bunday murakab harakatli o‘yinlarda ishtiroy etgan bolalar bir-birlaridan o‘zishga harakat qiladilar.

5 yashar bolalarning harakatli o‘yinlari mazmuni rang-barang, atrof tevarakda, xayotda uchraydigan voqealar to‘g‘risida ularning tasavvuri va bilimi oshib borishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bolalarning o‘yin vaqtida faol harakat qilishi ko‘p jixatdan ularning malakasi va ko‘nikmasiga, tevarak -atrofni yaxshi bilishiga, harakatlarni saboq, chaqqkonlik idrok va xamkorlikda bajarishga bog‘lik bo‘ladi. Aksariyat o‘yinlarda boshlovchi bo‘ladi, lekin ba’zan bu vazifani o‘yinchilarning 2-3 tasi bajarishi mumkin. O‘rta grupper uchun mo‘ljallangan harakatli o‘yinlarning ba’zilari mazmuniga

va bajariladigan vazifa tasviriga ega bo‘lmaydi. Bunday o‘yinlarga musobaqa tusini kiritish xam mumkin. Ko‘pincha qofiyali so‘zlar o‘yin mazmunini ochib beradi va uni to‘ldiradi, harakat uchun ishora xizmatini o‘taydi. So‘zlar ko‘pchilik bo‘lib aytilsa, yana xam yaxshi bo‘ladi.

6 yashar bolalar bilim doirasi tobora kengayib boradi binobarin, harakatli o‘yinlarning mazmuni xam murakkablashadi. O‘yin qoidalari xam murakkablashib borishi tufayli ularni bajarishda aniqlik diqqat-e’tibor, sabr-toqat, signaldan tez ta’sirlanishga o‘rganish, ortiqcha harakatlarni cheklash (aniq bir yo‘nalishda yugurish, tutilganlarning chetga chiqishi va xokazo) talab etiladi. O‘yin qoidasi intizomning tarkib topishiga yordam beradi. Ma’lumki, harakatli o‘yinlarda ishtirok etish uchun bolalarni guruxlarga bo‘lish kerak bo‘ladi, bunda ko‘pincha kuchli o‘g‘il bolalar faqat qizlar bilan guruxlashishga intiladilar. Bu o‘yinning borishiga va natijasiga ta’sir etadi. SHuning uchun tarbiyachi kuchliroq bolalarni nimjonroq bolalar bilan, o‘g‘il bolalarni qizlar bilan gurux-gurux qiladi. Bunda o‘g‘il va qiz bolalarning odob-axloqni bo‘lishi, yaxshi tarbiya topishi katta axamiyatga ega bo‘ladi. Bundan tashqari o‘g‘il bolalar qizlardan qolishmaslik uchun ancha tashabbuskor bo‘ladi, qizlarni xurmat qilishga o‘rganadi.

7-10 yashar bolalar uchun harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiya darsining asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham maktab programmasida boshqa materiallarga nisbatan o‘yinlarga ko‘proq o‘rin ajratiladi. Buning sababi shundaki dasturga kiritilgan turli xil jismoniy mashqlarni bolalar xilma-xil o‘yinlar vositasida osongina idrok qiladilar va o‘zlashtiradilar. O‘yinlarda yugurish, sakrash va uloqtirish yoki irg‘itish mashqlariga aloxida e’tibor berish lozim. Bu yoshdagи bolalar bilan oddiy va o‘rtacha murakkab o‘yinlarni o‘tkazish bilan birga, agar bolalar etarli darajada tayyorlangan bo‘lsa, ancha murakkabroq ya’ni komandalarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarni xam o‘tkazish mumkin. Bolalar bu o‘yinlarda "Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun" degan prinsip asosida birga o‘ynashga o‘rganadilar. Shunda ularda o‘zлari bilan birga o‘ynayotgan o‘rtoqlari uchun javobgarlik xissi uyg‘onadi. Komanda o‘yinlari etarli darajada chaqqon, xozirjavob, farosatli va baquvvat bo‘lishni talab etadi. Jismoniy tarbiya darslari ko‘pincha turli o‘yinlardan tarkib topadi va bundan tashqari darsga basketbol, voleybol, qo‘l to‘pi va futbol kiritiladi. 9-10 yashar bolalarning o‘yinlari birmuncha murakkablashtiriladi.

O‘yinda ko‘pincha o‘qituvchi boshlovchi bo‘ladi o‘qituvchining o‘yin jarayoniga rahbarlik qilish metodikasini egallagan bo‘lishi o‘yinlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishning asosiy sharti hisoblanadi. Harakatli o‘yinlarni tanlash va rejalashtirish dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Bunga har bir yosh gruhning ish sharoiti hisobga olinadi, chunonchi bolalarni jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiylarini harakat ko‘nikmalarining rivojlanishi, har bir bola sog‘lig‘ining ahvoli, o‘ziga xos xususiyatlari, yil fasli, kun tartibi, shuningdek bolalar qiziqishlarini o‘ziga xos xususiyatlari. Harakatli o‘yinlar dastur talablariga muvofiq asta-sekin murakkablashtirib boriladi,

bolalar ongini o'sishi, ular to'plagan harakat tajribasini, mакtabga tayyorlash zaruriyatini hisobga olgan holda o'zgartirib turiladi.

Katta guruhda bolalar uchun harakatli o'yinlar o'z mazmuni, qoidalari, rollarning miqdori, topshirishni jamoa musobaqasiga joriy etishga ko'ra murakkablashtiriladi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o'yinlar, shuningdek jamoa musobaqalaridan iborat jamoaviy o'yinlarni, o'yin estafetasi, sport o'yinlarini o'ynaydilar. Bularning hammasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikni rivojlanishi, harakat ko'nikmalrining takomillashuviga, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Bolalarni yangi o'yin bilan tanishtirish uning mazmuni va qoidalarini tushuntirishi tarbiyachidan puxta tayyorgarlikni talab etadi. Ayrim o'yinlarning mazmuni oldindan bo'ladigan suhbatlar asosida bolalarni bilimlarini oydinlashtirish mumkin. Ularning tasavvurlari aniqlashadi, o'yin obrazlarga nisbatan munosabat tarkib topadi, asosiy xayol o'sadi. O'yinlarni tushuntirish ularning turlariga ko'ra har-xil o'tishi mumkin, biroq bu tadbir doimo emotsional jihatdan qizig'arli, bolalarni quvnoq o'yin faoliyatiga tayyorlaydigan, o'yinni tezroq boshlash istagina tug'diradigan va o'yin topshiriqlarini ishtiyoq bilan bajarishga undaydigan bo'lishi kerak.

Mazmunsiz o'yinni tushuntirish qisqa, aniq va ifodali ohangda bo'lishi lozim. Tarbiyachi o'yin harakat izchilligini tushuntiradi, bolalar va o'yin atributlarining joylashish o'rni (kichik va o'rta guruhda buyumlarni mo'ljalab, katta guruhlarda esa mo'ljalga olmay ko'rsatadi) fazo iborasidan foydalangan holda ko'rsatadi va qoidalarni aniqlashtiradi. Shundan so'ng tarbiyachi bolalarga bir necha savollar beradi.

Tarbiyachining vazifasi bolalar ko'zi o'ngida o'yin vaziyatining ko'rgazmali manzarasini gavdalantirishdan, o'yin obrazlarini yorqin tasvirlashdan, bolalar tasavvuri va hislariga ta'sir etishdan, ularning ijodiy tashabbusni faollashtirishdan iboratdir. Buning uchun kichik gruhlarda o'yinchoq va hikoyadan foydalanishi mumkin. Katta guruhlarda o'yin mazmunini bolalarning o'zlariga taklif etish maqsadga muvofiqdir. Ulardan biri o'yin harakatlarining borishini bayon qiladi, ikkinchisi qoidalarni sanab beradi. Keyinchalik bolalar o'zlarini tarbiyachining yordamisiz o'yinni tashkil eta boshlaydilar.

O'yinda rollarni taqsimlash. Tarbiyachi pedagogik vazifalarga amal qilib yangi kelgan bolani rag'batlantirish yoki aksincha, faol bola misolida botir bo'lish qanchalik muhim ekanligini isbotlash yoki o'ziga ishongan bola iltimosini rad etib, bu rolni qo'rqib turgan tortinchoq bolaga topshirish boshlovchi tayin etishi yoki bolalarni hursand qilgan holda o'yinga o'zi kirishib o'z zimmasiga boshlovchi yoki oddiy ishtirokchi rolini oladi. Shuningdek boshlovchi saylashni bolalarni o'ziga xavola etishi va ulardan bu rolni mazkur bolaga nima uchun topshirganlarini tushuntirib berishlarini so'rashi mumkin.

**XULOSA**

Kichik guruhda boshlovchi rolini tarbiyachini o‘zi bajaradi. O‘yin jarayonida tarbiyachi bolalar harakati va o‘zaro munosabatlar, qoidalarini bajarilishini kuzatib boradi, qisqacha ko‘rsatmalar beradi, bolalarning hissiy holatlarini boshqarib boradi. Qoidaning ayrim bolalar tomonidan buzilishi haqida o‘yinni qayta o‘tkazishdan oldin gapiradi. Harakatli o‘yin jismoniy yuklamani kamaytiradigan xolga keltiradigan umumiy yurish bilan tugallanadi. Yurishni ahamiyatiga k o‘ra bir xil bo‘lgan kam harakatli o‘yin bilan almashtirish ham mumkin.

O‘yin tugagan zahoti uni yakunini chiqarish kerak emas, bolaning tez harakatdan dam olishga asta-sekin o‘tmasligi yurak faoliyatini va butun organizmiga noxush ta’sir etadi. Tarbiyachi o‘yinni baholashida uning ijobiiy tomonlarini ta’kidlaydi, o‘z rollarini muvaffaqiyatli bajargan, jasurlik, chidamlilik, o‘zaro o‘rtoqlik yordami ko‘rsatgan bolalar nomini aytadi va qoidalarning buzilishi hamda bolalarning shu bilan bog‘liq harakatini kuyinib ko‘rsatib o‘tadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

- 1.<https://azkurs.org/harakatli-oyinlarni-tashkil-etish ва-otkazish-metodikasi.html>
- 2.<https://hozir.org/mavzu-harakatli-oyinlarni-bolani-yoshiga-mos-holda-tanlash-tah.html>
- 3.[https://uzreferat.ucoz.com/load/referaty\\_na\\_uzbekskom/zhismonij\\_tarbija\\_va\\_sport/harakatli\\_o\\_yinlarni\\_bolalarni\\_yoshiga\\_mos\\_holda\\_tanlash\\_va\\_o\\_tkazish\\_metodikasi/15-1-0-1149](https://uzreferat.ucoz.com/load/referaty_na_uzbekskom/zhismonij_tarbija_va_sport/harakatli_o_yinlarni_bolalarni_yoshiga_mos_holda_tanlash_va_o_tkazish_metodikasi/15-1-0-1149)
- 4.<https://fayllar.org/mavzu-harakatli-oyinlarni-bolani-yoshiga-mos-holda-tanlash-tah-v2.html>  
<https://hozir.org/mavzu-harakatli-oyinlarni-bolani-yoshiga-mos-holda-tanlash-tah.html>